

Buxoro davlat universiteti  
o'quv-metodik kengash 11-sonli  
yig'ilishining bayonnomasidan

K O' CH I R M A

27.06.2022

Buxoro shahri

K U N T A R T I B I:

1. Turli masalalar.

Iqtisodiyot kafedrasi katta o'qituvchilari Sh.Sh. Boltayev, I.N. Niyozova, H.N. Abdullayevalarning 5230100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lif yo'naliishlari uchun "Innovatsion iqtisodiyot fanidan kurs ishini bajarish" deb nomlangan uslubiy ko'rsatma tavsiya etish.

E S H I T I L D I:

**M.Y. Faranova (kengash kotibasi)** Iqtisodiyot kafedrasi katta o'qituvchilari Sh.Sh. Boltayev, I.N. Niyozova, H.N. Abdullayevalarning 5230100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lif yo'naliishlari uchun "Innovatsion iqtisodiyot fanidan kurs ishini bajarish" deb nomlangan uslubiy ko'rsatmani nashrga tavsiya etishni ma'lum qildi. Ushbu uslubiy qo'llanmaga: BuxMTI Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti A.Ch. Boboyev va Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti F.M. Raxmatullayevalar tomonidan ijobiy taqriz berilgani ta'kidlandi. Uslubiy qo'llanma muhokamasi haqidagi Iqtisodiyot va turizm fakulteti (2022-yil 28-may) va Iqtisodiyot kafedrasi (2022-yil 21-may) yig'ilish qarori bilan tanishtirdi.

Yuqoridagilarni inobatga olib o'quv-metodik kengash

Q A R O R Q I L A D I:

1. Iqtisodiyot kafedrasi katta o'qituvchilari Sh.Sh. Boltayev, I.N. Niyozova, H.N. Abdullayevalarning 5230100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lif yo'naliishlari uchun "Innovatsion iqtisodiyot fanidan kurs ishini bajarish" deb nomlangan uslubiy ko'rsatma nashrga tavsiya etilsin.

O'quv-metodik kengash raisi

R.G'. Jumayev

O'quv-metodik kengash kotibasi

M.Y. Faranova



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**IQTISODIYOT VA TURIZM FAKULTETI**

**IQTISODIYOT  
KAFEDRASI**

**“INNOVATSION IQTISODIYOTI”**

**fanidan kurs ishlarini bajarish bo'yicha**

**U S L U B I Y   K O' R S A T M A**

**Tuzuvchilar:**      *katta o'qituvchi Boltayev Sh.Sh*  
*o'qituvchi Niyozova I.N.*  
*o'qituvchi Abdullayeva H.N.*

**Buxoro—2022 yil**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI, “IQTISODIYOT” KAFEDRASI KATTA O’QITUVCHISI SH.SH.BOLTAYEV, O’QITUVCHI I.N.NIYOZOVA, O’QITUVCHI H.N.ABDULLAYEVA 5230100—“IQTISODIYOT” (TARMOQLAR VA SOHALAR BO`YICHA) KECHKI TA`LIM YO`NALISHI TA`LIM TALABALARI UCHUN “INNOVATSION IQTISODIYOT” FANIDAN KURS ISHI YOZISH BO`YICHA USLUBIY KO’RSATMA. B.: BUXDU, 2022 YIL. 20 BET.**

**ANNOTASIYA:** Uslubiy ko’rsatmada umumiylar qoidalar, kurs ishining mavzusini tanlash va uni bajarish muddatlari, kurs ishining tuzilmasi va mazmuni, kurs ishini rasmiylashtirish va baholash tartibi, mavzular, tavsiya etiladigan adabiyotlar ro’yxati va ilovalar ko’rsatilgan.

**TAQRIZCHILAR:**

1. Raxmatullayeva F.M., BuxDU, “Iqtisodiyot ” kafedrasi dotsenti, i.f.n.
2. Boboyev A.Ch., BuxMTI, “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, i.f.n.

## **UMUMIY QOIDALAR**

Kurs ishi talabalarining dastlabki ilmiy ishi hisoblanadi. Kurs ishlari talabalar mustaqil ishlarining bir shakli bo`lib, uni muvaffaqiyatli bajarish uchun fan to`g’risida aniq tasavvurlarga ega bo’lishlari kerak. Talabalar kurs ishining ilmiy, nazariy, g’oyaviy darajasiga, shuningdek, uning yozilishi va rasmiylashtirish tartibiga e’tibor berishlari lozim.

Ishni bajarish jarayonida talabalar kursga oid nazariy bilimlar, maxsus adabiyotlar, huquqiy-normativ aktlar, mavzuga oid yondashuvlardan xabardor ekanligini hamda tahlil qilish, umumylashtirish va xulosalar chiqarish ko’nikmalarini ko’rsatishadi.

### **Kurs ishi maqsadlari:**

- Talabalarning “Innovatsion iqtisodiyot” fani bo’yicha ma’ruza va amaliy mashgulotlari jarayonida orttirgan nazariy bilimlari va amaliy ko’nikmalarini kengaytirish, chuqurlashtirish, mustahkamlash hamda tizimlashtirish.
- Kurs ishiga oid muammolarni yechishda mustaqil ishslash hamda izlanish olib borish ko’nikmalarini rivojlantirish.
- Talabaning nazariy va amaliy bilimlari hamda bu bilimlarni dolzarb iqtisodiy muammolarni echishga tadbiq qila olish qobiliyati darijasini aniqlash.
- Kurs ishini yozish natijasida talabalar ijodiy fikrlay boshlaydi. Bu esa ularga kelgusidagi bitiruv malakaviy isi va ilmiy ishlarini yozishida katta yordam beradi.

### **Kurs ishi vazifalari:**

- ✓ Tanlangan mavzuning dolzarbligi va ahamiyatini asoslash.
- ✓ Tanlangan mavzuga oid nazariy ma’lumotlar, texnik-normativ hujjatlashtirish, statistik ma’lumotlar, ilmiy adabiyotlarni o’rganish.
- ✓ Mavzuga oid muammoli vaziyatlarga o’z fikrini bildira olish.

- ✓ Tanlangan mavzuni o'rganish va o'tkazilgan tahlillarga asosan xulosalar chiqarish hamda takliflarni shakllantirish.
- ✓ Talab qilingan me'yirlarga asosan kurs ishini rasmiylashtirish.

### **KURS ISHINING MAVZUSINI TANLASH VA UNI BAJARISH MUDDATLARI**

Talaba kurs ishi mavzusini tanlashda dastlab shu fan bo'yicha professor-o'qituvchining ma'ruzalarini diqqat bilan tinglab, hozirgi zamon iqtisodiyotiga oid adabiyotlarni hamda Prezident asarlarini chuqur o'rganib chiqishi lozimdir.

Kurs ishi mavzusini (1-ilova) talaba o'zi ixtiyoriy ravishda tanlaydi va quyidagi maqsadlarni o'z oldiga qo'yishi kerak: Tahlil qilinayotgan mavzusini katta qiziqish bilan o'rganishi, o'zining bilim darajasini kengaytirishi va uni keljakda mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashi uchun amaliyotga tadbiq qila olish imkoniga ega bo'lishi muhim hisoblanadi.

Kurs ishining rahbari sifatida kafedraning tajribali o'qituvchilari kafedra tomonidan tayinlanadi.

Kurs ishini bajarishda mazkur qo'llanmada ko'rsatilgan adabiyotlar ro'yxati (5-ilova) bilan cheklanmasdan, ayrim masalalarni batafsil bayon qilish imkonini beradigan qo'shimcha adabiyotlardan ham foydalansa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

«Innovatsion iqtisodiyot» fanidan kurs ishini tayyorlash va himoya qilish yo`nalishning o`quv rejasiga muvofiq 6-semestrida amalga oshirilishi ko`zda tutilgan. Uni tayyorlashning asosiy muddatlari quyidagicha:

- Mavzu tanlash:
- Adabiyotlarni ko'rib chiqish, reja tuzish ,ilmiy rahbar bilan rejani tasdiqlash va ilmiy rahbar fikrlarini inobatga olib, matnning asosiy variantini tayyorlash:
- Kurs ishini tayyorlab (kafedraning maxsus jurnalida ro'yxatga olinadi)

- Ijobiy taqriz yozilgan kurs ishlari himoyaga qo'yiladi. Himoya quyidagi usullarda amalga oshirilishi mumkin:

- ❖ ochiq himoya;
- ❖ individual himoya;
- ❖ kichik guruhda himoya.

Muallif ishning asosiy natijalari, xulosa va takliflari bildirilgan taqdimot asosida himoyani amalga oshiradi. Chiqish vaqtı – 7 minut. Ishning samaradorligini va o'zlashtirish ko'rsatkichini oshirish maqsadida ko'rgazmali materiallardan foydalанилиши мақсадга мувофиқ.

### **KURS ISHINING TUZILMASI VA MAZMUNI**

Kurs ishi matnini yozish talabidan katta mas'uliyat talab qiladi va ish vaqtning asosiy qismini egallaydi. Uni yozishda talaba o'zining bilimi va qobiliyatini namoyon qilishi kerak. Rejadagi savollar mantiqan bir-birlari bilan bog'langan bo'lishi, har bir keyingi savol o'zidan oldingi savolning mantiqan davomi bo'lib, bir butunni tashkil etishi kerak.

Tanlangan mavzudan qat'iy nazar ishning tuzilmasi quyidagicha bo'lishi maqsadga muvofiq:

- ❖ Titul varag'i (1-bet) (2-ilovada namuna keltirilgan)
- ❖ Ilmiy rahbarning kurs ishiga taqriz blankasi (2-bet) (4-ilovaga qarang)
- ❖ Mundarija (3-bet) ( 3-ilova)
- ❖ Kirish (4-6 betlar)
- ❖ 1-bob. Mavzu yoki muammoni o'rganishning nazariy va uslubiy asoslari
- ❖ 1.1. birinchi bobning paragrafi
- ❖ 1.2. birinchi bobning paragrafi
- ❖ 1.3. birinchi bobning paragrafi
- ❖ 1.4. birinchi bobning paragrafi(agar zarur hisoblansa)
- ❖ 2-bob. O'rganilayotgan mavzu yoki muammoning tahlili, echimiga oid taklif va chora-tadbirlar

- ❖ 2.1. ikkinchi bobning paragrafi
- ❖ 2.2. ikkinchi bobning paragrafi
- ❖ 2.3. ikkinchi bobning paragrafi
- ❖ Xulosa
- ❖ Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati
- ❖ Tayanch iboralar
- ❖ Ilovalar(agar mavjud bo'lsa)

**Kurs ishining kirish qismida** mavzuni o'rganish va rivojlantirshning asosiy tendenstiyalari ko'rib chiqiladi, joriy vaziyat tahlil qilinadi, mavzuning nazariy va amaliy ahamiyati asoslanadi, asosiy maqsad va vazifalar shakllantiriladi. Bundan tashqari kurs ishining ob'ekti, predmeti, tuzilmasi, izlanish olib boriladigan soha tahlil qilinadi. Kirish qismining hajmi kurs ishi umumiy hajmining 10% dan oshmasligi kerak.

**Kurs ishining birinchi bobি** odatda, o'rganilayotgan mavzuning nazariy jabhalariga bag'ishlanadi va qolgan materialni yoritishning asosi bo'lib xizmat qiladi. O'rganilayotgan jarayonning tabiatи, mazmuni va tarkibiy qismlari ko'rib chikiladi.

Ishni mavzuning ob'yekti va predmetini tavsiflashdan boshlash maqsadga muvofiq. Shundan so'ng kichik tarixiy sayohat uyshtirib, mavzuning o'rganilganligini aytib o'tish, savollarni ko'rib chiqish va, albatta, o'z nuqtai nazarini yoritish lozim. Bu bobda adabiyotlarga tavsif beriladi, konstepstiya shakllantiriladi, o'rganilayotgan mavzu tahlili uslubi asoslanadi. Adabiyotlarga tavsif berish jarayonida turli mualliflar fikrlarining o'xhash va farqli jihatlari tahlil qilinib, o'z nuqtai nazarini asoslanishi kerak. Uslubiy qism axborot yig'ish, uni tahlil qilish va qayta ishlash usullari tavsifini nazarda tutadi. Har bir bob yangi sahifadan boshlab yozilishi kerak, undagi paragraflar esa tugagan joyidan 2 qator tashlab keyingisini yozish tavsiya etiladi.

**Kurs ishining ikkinchi bobida** birinchi bobda yoritilgan nazariy va uslubiy asoslarga tayangan holda shu mavzu bilan chegaralangan sohadagi ishlarning joriy ahvoli tahlil qilinadi. Buning uchun amaldagi normativ aktlar, ilmiy-amaliy konferenstiyalar materiallari, ilmiy ishlar natijalari, statistik ma'lumotlar (ham davlat miqiyosidagi, ham yakka korxonalar miqiyosidagi) qo'llanilishi mumkin. Tahlillarga asos bo'lib hisoblanuvchi materiallar kerakli darajada to'liq va ishonarli bo'lishi kerak, qaysikim ularga asoslanib zahiralarni aniqlash va keyingi faoliyat davomida ishlatish mumkin bo'lsin. Bundan tashqari, talaba mavjud faktlarni sanab o'tish bilan cheklanmasdan, ularning afzallik va kamchiliklarini ham yoritishi kerak.

Tahlillar natijalariga asoslanib talaba takliflarni shakllantiradi. Takliflarni shakllantirish o'r ganilayotgan mavzuga oid kamchiliklar va imkoniyatlarning to'liq va asoslangan yoritilishini nazarda tutadi.

**Kurs ishining xulosasi** – bu ish davomida topilgan ma'lumotlar sintezidir, ya'ni bunda olib borilgan izlanishlar natijasida qilingan xulosalar mantiqiy ketma-ketlikda bayon qilinadi. Bundan tashqari asosiy xulosalar va izlanish natijalariga asoslanib takliflar bayon qilinadi. Xulosa hajmi kurs ishi hajmining 5-10%ini tashkil etishi kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati** kurs ishida o'z ifodasini topishi kerak. Foydalanilgan adabiyotlarni guruhashning eng keng tarqalgan usuli – bu alifbo tartibida joylashtirishdir. Kitob va maqolalar muallif familiyasi yoki kitob, maqola nomi (agar muallifi ko'rsatilmagan bo'lsa) orqali alifbo tartibida joylashtiriladi. Shundan so'ng nashr etilgan joy va sana ko'rsatiladi. Agar jurnal materiali ko'rsatilsa, muallif familiyasi, ismi, otasining ismi, maqola nomi, jurnal nomi, nashr yili va soni ko'rsatilishi zurur.

**Tayanch iboralar** foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati berilgandan so'ng joylashtiriladi. Unda kurs ishida yoritilgan terminlar, iboralar keltiriladi.

**Ilovалarga** jadvallar, sxemalar, grafiklar, diagrammalar, statistik ma'lumotlar, boshqaruv, huquqiy, iqtisodiy va moliyaviy xarakterdagи hujjatlar

joylashtirilishi mumkin. Har bir ilova yangi sahifadan boshlanishi kerak. Har bir ilovada uning raqamini aks ettiradigan sarlavha bo'lishi kerak (Masalan: 1- ilova). Ilovalar jaylashtirilgan sahifalar betlanadi, ammo kurs ishi hajmiga kirmaydi.

Ilovalar kurs ishining ko'rgazmaliligin oshiradi, unda aks ettirilgan hodisalar tabiat va o'zaro bog'liqligini hamda ularning rivojlanish xususiyatlarini chuqurroq ochishga yordam beradi.

### **KURS ISHINI RASMIYLASHTIRISH**

Kurs ishining umumiy hajmi (ilovalarsiz) A4 formatidagi 40 betdan 44 betgacha etib belgilangan. Kurs ishi hajmi tanlangan mavzu, ma'lumotlar bilan ta'minlanganlik va ishning texnik bajarilishi **bosma tarzda** bo'ladi.

Matnni quyidagi qoidalarga amal qilib yozish (pechatlash) kerak: bet chegarasidan matngacha- chap tomondan 20 mm , o`ng tomondan 10 mm, yuqorigi va pastgi chegaralardan 20 mm. Sahifa raqami pastki o`ng burchakka yoziladi. Abzaslar 10 mm bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Kurs ishida qatorlar orasidagi interval 10 mm bo'lishi kerak. Qalin shrift faqatgina sarlavhalarda ishlatilishi mumkin. Kursiv shrift ishlatilishi mumkin emas. Kurs ishi lotin alifbosi harflarida yozish talab etiladi.

Iqtiboslar to'g'ri rasmiylashtirilishi zarur, ya'ni muallif nutqi qo'shtirnoq ichida berilishi va manbasi aniq ko'rsatilishi kerak.

### **KURS ISHLARINI BAHOLASH TARTIBI**

Kurs ishini baholash mezoni talabalarda ilmiy izlanishga qiziqish uyg'otish, ularga to'g'ri ta'lim-tarbiya berishga xizmat qilishi zarur.

Kurs ishlari sifat darjasiga qarab tabaqalangan holda baholangani maqsadga muvofiqdir. Reyting tizimi bo'yicha talabaning kurs ishini 5 ballik tizim asosida baholanadi.

<b>Nº</b>	<b>Belgilangan ball</b>	<b>Baholash mezonlari</b>
1	“A’lo”- “5” baho	Rejadagi savollarning mazmuni ijodiy yondoshilgan holda yoritilgan bo’lsa, foydalanilgan adabiyotlar va ma’lumotlarga snoskalar (ilovalar) berilib, adabiyotlar ro’yxatida ko’rsatilgan bo’lsa va ish bo'yicha berilagan savollarga aniq va to’liq javob berib, o’zining fikrini erkin bayon etsa bunday taylorlangan ishlarga «a’lo» baho qo'yish mumkin.
2	“Yaxshi” “4” baho	Agar rejadagi 4-5 savolning 3-4 tasiga to’liq javob yozilgan bo’lib, bittasiga etarlicha javob berilmagan bo’lsa, himoyada talabaning javob berishiga qarab «yaxshi» baho qo'yish mumkin.
3	“Qoniqarli” “3” baho	Rejadagi 4-5 ta savolning bitta yoki ikkitasining mazmuni yoritilib, qolgan savollarga javob berilmagan bo’lsa, to’g’ri yozilgan javoblar ham darslik va kitoblardan ko’chirilgan, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati yo’q, ilovalar berilmagan va boshqa shu kabi kamchiliklar bo’lsa, ko’rsatilgan kamchiliklar himoyagacha bajarilsa, talabaning javobini hisobga olib bu kabi ishlarni «qoniqarli» baholash mumkin. Agarda talaba yuqoridagi kamchiliklarni yozma ravishda bartaraf etmasa, kurs ishi «qoniqarsiz» baholanadi.

4	<p><b>“Qoniqarsiz”</b>  <b>“2” baho</b></p>	<p>Kurs ishida quyidagi kamchiliklarga yo’l qo’yilgan bo’lsa, u taqriz yozish davridayoq «qoniqarsiz» baholanadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- reja noto’g’ri va umuman qoniqarsiz tuzilgan bo’lib, mavzuning mazmuniga mos tushmasa;</li> <li>- kurs ishi e’tiborsizlik bilan pala-parish bajarilsa;</li> <li>- javoblar asosan o’quv adabiyotlaridan ko’chirilgan bo’lsa;</li> <li>- foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati bo’lmasa;</li> <li>- foydalanilgan adabiyotlarga va ma’lumotlarga ilovalar berilmagan bo’lsa;</li> <li>- rejadagi savollar mohiyati biri ikkinchisidan ajratilmagan holda berilsa;</li> <li>- kurs ishini talabaning o’zi xusni xati bilan bajarmagan bo’lsa.</li> </ul>
---	---	--

## **Kurs ishi uchun mavzular**

1. Innovatsiyalarni moliyalashtirishning korporativ strategiyasi
2. Firmada innovatsion xarajatlar tarkibi va uning tahlili
3. Firmada innovatsion risklarni sifat va miqdor jihatdan baholash usullari
4. Innovatsion iqtisodiyotda loyihalarni moliyalashtirish manbalari
5. Innovatsion loyihalar samaradorligini baholashda axborot texnologiyalari
6. Intellektual kapital, intellektual mulkni shakllantirish va boshqarish
7. Innovatsiyalarni boshqarishning nazariy va amaliy asoslari
8. Innovatsiyalarni moliyalashtirishning maxsus shakllari
9. Innovatsion iqtisodiyotda investision loyihalarni samaradorlik mezonlari
10. Yuqori texnologiyali ishlab chiqarish sohalarini boshqarish
11. Korxonalarning innovatsion biznes faoliyatini baholash
12. Korxonalarning innovatsion jarayonlari va ularni baholash
13. Iqtisodiyotda ilmiy-texnik rivojlanishni asosiy yo'nalishlari
14. Korxona ishlab chiqarish faoliyatini boshqarish va ularning o'sish modellari
15. Innovatsion risklarni boshqarish konsepsiysi
16. Firmaning innovatsion faoliyatini loyihaviy boshqaruvini tashkil etish va uning amaliy holati
17. Innovatsion infrastuzilma va uning milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni
18. Firmada innovatsion maxsulotlar tannarxi, tarkibi va uni baholash
19. Innovatsion maxsulot samaradorlik darajasini baholash
20. Innovatsiyalarni tashkil etishning korporativ shakllari ular faoliyatining amaliy natijasi
21. Innovatsion marketing texnologiyasi
22. Innovatsion loyihalarda firma risklarni baholash
23. Innovatsion iqtisodiyotda firma faoliyatining samaradorligini hisoblash
24. Texnoparklar tizimining tashkiliy tuzilmasi, vazifalari ular faoliyatining amaliy natijasi
25. O'zbekistonning innovatsion rivojlanishi
26. Hududlar- innovatsion salohiyati
27. Innovatsion iqtisodiyotning shakllanishining davlat tomonidan tartibga solinishi
28. O'zbekistonda innovatsion faoliyat xolatining taxlili
29. Rivojlangan davlatlarda milliy innovatsion infratuzilma
30. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishda davlat xarajatlari siyosati
31. Korxonalarda innovatsialarni boshqarishning asosiy vositalari tamoyillari usullari

32. Inson kapitaliga invistititsiyalarning mohiyati turlari va samaradorligi
33. O'zbekistonda iqtisodiyotni raqamlashtirishning hozirgi xolat tahlili
34. Iqtisodiyotning innovatsion rivojlantirish va uni raqobatlashtirish shakllari
35. Marketing tizimida innovatsion siyosat
36. Zamonaviy marketingda innovatsionlar va texnologiyalarning o'rni
37. Innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish postindustrial jamiyatga o'tishning omili
38. Texnologiyalarni rivojlantirishning jahon tajribasi
39. Innovatsion iqtisodiyot: mohiyati va rivojlantirishning asosiy shakli
40. Innovatsiya- innovatsion menejmentning obyekti sifatida
41. Zamonaviy korxonalar raqobatbardoshligini taminlashda innovatsiyalarning o'rni
42. Innovatsion muhit va uning elementlari
43. Innovatsion faoliyatni davalat tomonidan tartibga solinishi
44. Innovatsion faoliyatning ichki va tashqi muhiti
45. Innovatsion faoliyatni huquqiy tartibga solish
46. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish manbalari
47. Ilmiy- texnik salohiyat innovatsion faoliyat olishi sifatida
48. Korxona innovatsion faoliyati infratuzilmasi
49. Bozor iqtisodiyotida innovatsion jarayon rivojlanishining o'ziga xosligi
50. Innovatsilarni strategik boshqarish va innovatsion strategik tanlash
51. Innovatsion loyihaning mohiyati va uni boshqarish
52. Innovatsion loyihani ishlab chiqish
53. Innovatsion loyiha samaradorligini baholash
54. Innovatsiyalar diffuziyasi tuzilmasi va uning mohiyati
55. Qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiya faoliyatini tashkil etish.
56. Agrobiznes korxonalarida innovatsion faoliyatni tashkil etish.
57. Milliy iqtisodiyotning innovatsion salohiyati va undan samarali foydalanish.
58. Agrobiznesda lizing faoliyatining innovatsion ahamiyati
59. Innovatsion iqtisodiyotda inson kapitali
60. Qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni joriy etishning asosiy vazifalari
61. Internet marketingning konsepsion strategik rivojlanish jihatlari
62. Qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni iqtisodiy samaradorligi
63. Milliy innovatsion tizim: mohiyati, tarkibi
64. Global innovatsion indeks va innovatsion rivojlanishning boshqa ko'rsatgichlari

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**IQTISODIYOT VA TURIZM FAKULTETI**

**IQTISODIYOT  
KAFEDRASI**

**«INNOVATSION IQTISODIYOT » FANIDAN**

**K U R S I S H I**

**Mavzu:** \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

**Bajardi:** \_\_\_\_\_ *guruhi talabasi* \_\_\_\_\_  
(imzo) \_\_\_\_\_ (ismi sharifi)

**Kurs ishi himoya qilingan sana** “\_\_\_\_” \_\_\_\_ 2022 y.

**Baho** “\_\_\_\_” \_\_\_\_\_

**Ilmiy rahbar:** \_\_\_\_\_  
(imzo) \_\_\_\_\_ (ismi sharifi)

**Komissiya a'zolari:** \_\_\_\_\_  
(imzo) \_\_\_\_\_ (ismi sharifi)  
\_\_\_\_\_  
(imzo) \_\_\_\_\_ (ismi sharifi)

**Buxoro – 2022 yil**

**KURS ISHI MAVZUSI REJASINI TUZISH BO'YICHA NAMUNA**

**MAVZU: INNOVATSION FAOLIYATNI  
MOLIYALASHTIRISH**

**M U N D A R I J A :**

**Kirish**

1. Moliyalashtirish manbalari tizimi va tavsifi .
2. Innovatsiya jarayonini moliyalashtirish uchun byudjetdan tashqari mablag‘lar.
3. Turli hayotiy bosqichlaridagi kompaniyaning innovatsion faoliyatini moliyalashtirish.
4. Rivojlanishning dastlabki bosqichlarida innovatsion faoliyatni moliyalashtirish manbalari.
5. Venchur kapitali - kompaniya rivojlanishning so‘nggi bosqichida moliyalashtirishning asosiy manbai sifatida.
6. Investitsiya operatsiyasini tarkibiy tuzilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

**Ilovalar**

## 4-ilova

### ILMIY RAHBARNING KURS ISHIGA TAQRIZ BLANKASI

#### **KURS ISHI UCHUN TAQRIZ**

**Iqtisodiyot va turizm fakulteti**

**Iqtisodiyot kafedrasи**

**“Innovatsion iqtisodiyot” fani**

Guruh.....

Talaba familiyasi va ismi-sharifi.....

Kurs ishi mavzusi.....

Kurs ishining  
tarkibi.....

Kurs ishi himoyasida talabaga berilgan savollar ro'yxati:.....

Jadval va grafik materialning miqdori (muhim chizmalarning  
ko'rsatgichi).....

Kurs ishining ijobiy tomonlari.....

Kurs ishining kamchiliklari.....

Kurs ishiga qo'yilgan baho.....

Kurs ishiga rahbarning ismi-sharifi va imzosi.....

**TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

**I.O'zbekiston Respublikasining Qonunlari**

- 1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.:O'zbekiston, 2018.
- 1.2.O'zbekiston Respublikasining Qonuni: Ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida, 1994 yil 6 may.
- 1.3.O'zbekiston Respublikasining Qonuni: Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida, 1994 yil 6 may.
- 1.4.O'zbekiston Respublikasining Fuqorolik Kodeksi (1 qism). -T.: O'zbekiston, 1995.
- 1.5. O'zbekiston Respublikasining Qonuni: Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida, 1996 yil 26 aprel.
- 1.6. O'zbekiston Respublikasining Qonuni: Reklama to'g'risida, 1998 yil 25 dekabr
- 1.7. O'zbekiston Respublikasining Qonuni: Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida, 2000 yil 25 may,
- 1.8. O'zbekiston Respublikasining Qonuni: Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida, 2001 yil 30 avgust,
- 1.9.O'zbekiston Respublikasining Qonuni: Integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risida, 2001 yil 12 may,
- 1.10.O'zbekiston Respublikasining Qonuni: Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida, 2001 yil 30 avgust.
- 1.11.O'zbekiston Respublikasining Qonuni: Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida, 2006 yil 20 iyul,
- 1.12.O'zbekiston Respublikasining Qonuni: Firma nomlari to'g'risida, 2006 yil 18 sentyabr.
- 1.13.O'zbekiston Respublikasining Qonuni: Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi (yangi tahrirda), 2014 yil 9 dekabr.
- 1.14. O'zbekiston Respublikasining Qonuni: Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida, 2019 yil 29 oktyabr,

**II. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari,  
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari**

- 2.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"PF-4947-sont Farmoni.

- 2.2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi, PQ-3416сон Qarori
- 2.3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzurida Ilg‘or texnologiyalar markazini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3674 son Qarori.
- 2.4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 apreldagi “Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘rsida”gi PQ-3682- son Qarori.
- 2.5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 maydagi “Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3697- son Qarori.
- 2.6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 maydagi “Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi” PQ-3698 son Qarori
- 2.7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 apreldagi “Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” PQ-3682 sonli Qarori.
- 2.8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 iyuldagи “Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3855-son Qarori
- 2.9.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 avgustdagи “Ilmiy va innovatsion faoliyatni integratsiya qilish tizimi samaradorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3899-son Qarori.
- 2.10.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabrdagi “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini amalgaloshirish bo‘yicha” PF-5544 son Farmoni
- 2.11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 24 noyabrdagi “Tadbirkorlik va innovatsiyalar sohasida loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5583-sonli Farmoniga
- 2.12.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20 dekabrdagi “Eksportga ko‘maklashish va uni rag‘batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
- 2.13.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 1 iyuldagи “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4380-son Qarori.
- 2.14.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 iyul kuni qabul qilingan “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat

sanoatini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori

2.15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldag'i 54-son qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom"

2.16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 3 dekabrdagi 979-son qarori bilan tasdiqlangan "Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Ilmiy va ilmiy-texnik faoliyat natijalarini tijoratlashtirish Prezident jamg'armasi to'g'risida Nizom"

2.17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 20 iyuldag'i 609-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi to'g'risida Nizom"

2.18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 9 martdag'i "Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 133-son Qarori

### **III.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari va ma'ruzalari**

3.1.Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatni birgalikda barpo etamiz. –T.: "O'zbekiston" NMIU, 2016

3.2.Mirziyoev, Shavkat Miromonovich. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar. – T.: "O'zbekiston", 2017,

3.3.Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.- T.: "O'zbekiston" NMIU, 2018.

3.4.Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.//Xalq so'zi, 2018 yil 29 dekabr.

3.5. Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.//Xalq so'zi, 2020 yil 25 yanvar,

### **IV. Darsliklar**

4.1.Бабурин В. Л. Инновационные циклы в российской экономике. М.: КРАСАНД, 2010.

4.2.Зубко Н.М. Экономическая теория. - Минск: НС АПИ, 1998.

4.3.Ijtimoiysoha iqtisodiyoti. Darslik./i.f.d., prof. Q.X. Abdurahmonov tahriri ostida. – T.: Iqtisodiyot,2013.

4.4.Kempell R.Makkonnell, Stenli L.Bryu. Ekonomiks: prinsipq, problemq i politika. Tom 1. –Tallin, 1993.

- 4.5. Носов А.М. Теория диффузии инноваций и инновационное развитие регионов России, Псков, 2015.
- 4.6. Портер М.Е. Конкуренция. Пер. с англ.-М.: Издат. Дом “Вильямс”, 2001.
- 4.7. Porter M. E. Konkurentnaya strategiya. Alpina Biznes Buks, 2005. 451
- 4.8. Rodjers E. M.. Diffuziya innovatsiy, 4-e izdanie., Nyu-York, 2010.
- 4.9. Salixov S.A. Innovatsion faoliyatni boshqarish. Darslik. – Т.: TDIU, 2013.
- 4.10. Soliyev A., Buzrukxonov S. Marketing, Bozorshunoslik. Darslik. –Т.: Iqtisod-Moliya, 2010.
- 4.11. Фатхуддинов Р.А. Инновационный менеджмент. Учебник,– СПБ.: Питер, 2004
- 4.12. Xodiyev B.Y., Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. – Т.: “Barkamol fayz media”, 2017.
- 4.13. Ergashxo‘jayeva Sh.J. Innovatsion marketing. Darslik. – Т.: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2014.
- 4.14. Шумпетер Й. Теория экономического развития / Й.Шумпетер. –М.: Прогресс, 1982.
- 4.15. O‘lmasov A., Vaxobov A.. Iqtisodiyot nazariyasi. -Т:, “Sharq” nashriyoti, 2010.

## V. O‘quv qo‘llanmalar

- 5.1. Abdusattarova X.M. Innovatsiya strategiyasi. O’quv qo’llanma - Т.: TDIU, 2011.
- 5.2. AbernathyJ., Clark K.B. (1985) Innovation: Mapping the winds of creative destruction. [http://www.sciencedirect.com/science/article/pii/0048-7333\(85\)90021-6](http://www.sciencedirect.com/science/article/pii/0048-7333(85)90021-6)
- 5.3. . Business model roadmapping: a practical approach to come from an existing to a desired business model, M.DeReuver, H.Bouwman, T., Haaker, International Journal of Innovation Management, Feb2013, Vol. 17, Issue 1
- 5.4. . Business model innovation and competitive imitation: The case of sponsorbased business models, R. Casadesus-Massanell, R. Zhu, Feng, StrategicManagement, April 2013, Vol. 34, Issue 4, pp.464-482.
- 5.5. Иличева, И. В. Маркетинговые технологии: учебно-методическое пособие / И. В.Иличева. - Ульяновск: УлГТУ, 2012.
- 5.6. Котлер Ф. Основы маркетинга, Учебное пособие. –М.: Издательский дом “Вильямс”, 2010. 452
- 5.7. Perez, Carlota (2002). Technological Revolutions and Financial Capital: The Dynamics of Bubbles and Golden Ages. UK: Edward Elgar Publishing Limited. ISBN 978-1-84376-331-4.
- 5.8. Кузык Б.Н., Яковец Ю.В. Россия-2050: стратегия инновационного прорыва. –М.: экономика, 2005.
- 5.9. New business models in emerging markets, M.J.Eyring, M.W.Johnson, H.Nair, Harvard Business Review, Jenuary-February, 2011, pp.89-95.

- 5.10.Taraxtiyeva G.K. Innovatsion menejment. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Fan va texnologiya», 2013.
- 5.11.The role of the business model in capturing value from innovation: evidence from Xerox Corporation’s technology spin-off companies, H. Chesbrough, R.S. Rosenbloom, ICC Association, 2002.
- 5.12. The CEO's role in business model reinvention, V.Govindarajan, C. Trimble, Harvard Business Review, Jenuary-February, 2011, pp.109-114.
- 5.13.Уляновский А.В. Маркетинговые коммуникатии: 28 инструментов миллениума / А.В. Уляновский - М.: ЭКСМО, 2008.
- 5.14.Yakovenko M. N. Ekonomika i organizatsiya innovatsionnoy deyatelnosti : uchebnoe posobie / M. N. Yakovenko, E. O. Kovalenko, V. V. Rovenskaya. – Kramatorsk:DGMA, 2011.
- 5.15. How to design a winning business model, , J.E.Ricart, Harvard Business Review, Jenuary-February, 2011, pp.
- 5.16. Chesbrough, Henry W. Open Innovation: The New Imperative for Creating and Profiting from Technology, 272 pages, 2003
- 5.17. Rothwell, R., “Towards the Fifth-generation Innovation Process” in J. Henry and D. Mayle (eds.), Managing Innovation and Change, 2002, Sage, London, chapter 6, pp.115-135
- 5.18. Schumpeter, J.A., 1934. Theory of economic development. Harvard University Press, Cambridge, MA
- 5.19. Schweizer, L., 2005. Concept and Evolution of Business Models, Journal of General Management, 31, 2, 37-56
- 5.20. West J., Gallagher S., Challenges of Open Innovation: The Paradox of Firm Investment <http://www.joelwest.org/Papers/WestGallagher2006a-WP.pdf>
- 5.21. Everett M. Roders. Diffusion of Innovations. - New York: Free Press, 1983
- 5.22. Theodore Levitt. The Marketing Imagination - Издательство: Free Press, 1986
- 5.23. Оханян К. Руководство по маркетингу для малого бизнеса. М.: USAID Business Development Program, 1998.
- 5.24. Мур Дж.А. Преодоление пропасти. Как вывести технологический продукт на массовый рынок. М.: Манн, Иванов, Фербер, 2013
- 5.25. Траут Дж., Райс Эл. Позиционирование: битва за умы. Юбилейное издание. Пер. с англ. – Спб.: Питер, 2007.
- 5.26. Батлер Т., Уолдруп Д. Моделирование работы: искусство сохранения ценных сотрудников // Классика HBR: Как найти и удержать лучших сотрудников. – М.: Альпина Бизнес Букс, 2006.
- 5.27. Лебедева Н.М., Татарко А.Н Ценности культуры и развитие общества. М., издательский дом ГУ ВШЭ, 2007, с. 451
- 5.28. Белбин Р.М. Команды менеджеров. – Издательство: Манн, Иванов и Фербер, 2009. – 238 с.

- 5.29. Лаптев Г.Д., Ладионенко М.А., Полежаева Е.А., Храмкова Е.Е., Шайтан Д.К. Компетентностный подход и роль дизайн-мышления в обучении инновационному предпринимательству, М., ООО «Теис»
- 5.30. Камерон К., Куинн Р. Диагностика и изменение организационной культуры. СПб.: Питер. 2001. 320 с.
- 5.31 Яголковский С.Р., Психология креативности и инноваций, М., Издательский дом ГУ ВШЭ, 2007, с. 64-66
- 5.31.Флорида Р. Креативный класс: люди, которые меняют будущее. – М.: Издательский дом «Классика-XXI», 2007. С. 106-109
- 5.32. Хэмел Г. Во главе революции. Как добиться успеха в турбулентные времена, превратив инновации в образ жизни. Спб.:2007
- 5.33. Белолипецкий В.Г. Финансовый менеджмент: учебное пособие. - М.: КНОРУС, 2008
- 5.34. Korotayev, Andrey; Zinkina, Julia; Bogevolnov, Justislav (2011). "Kondratieff waves in global invention activity (1900–2008)". *Technological Forecasting and Social Change*. 78(7): 1280. doi:10.1016/j.techfore.2011.02.011

## **VI. Monografiyalar**

- 6.1. Shavqiev E.Sh. Tadbirkorlik – aholi farovonligini oshirishda asosiy omil. //Xizmat ko‘rsatish sohasini modernizatsiyalash va aholi farovonligini yuksaltirish: muammo va yechimlar. Monografiya. Mualliflar jamoasi – Т.: “Fan va texnologiya”, 2019.
- 6.2.Ergashev R.X. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning ilmiy-nazariy va huquqiy asoslari. //Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish istiqbollari. Monografiya. Mualliflar jamoasi. – Т.: “Iqtisod-Moliya”, 2019.
- 6.3.Майкл Э., Хэндфилд-Джонс Х., Экселрод Э. Война за таланты. – М.: Манн, Иванов и Фербер, 2005. С.81-82.

## **VII. Internet saytlari ma’lumotlari**

- 7.1.<https://www.Marketing.kharkov.ua/marketing/setevoy-marketing.html>
- 7.2.<https://www.provenmodels.com/575/five-generations-of-innovation/roy-r.-rothwell/>
- 7.3.<https://claytonchristensen.com/>
- 7.4.<https://elibrary.ru/item.asp?Id=19749721>
- 7.5.<https://www.amyjwilson.com/innovation-strategy>
- 7.6.<https://www.Kun.uz20.06.2020 12:06 706>
- 7.7.<https://www.Kun.Uz / O‘zbekiston, 17.07.2019, 862>
- 7.8.<https://www.Kun.uz 12:40 / 12.11.2019 2222 0>
- 7.9.<http://tsyganok.ru/publs/pub.asp?id=2165>
- 7.10.<http://www.nesta.org.uk/library/documents/characteristics-inno-orgs-interim-report.pdf>